

BUGUNGI KUNDA IT SOHASINING HAYOTIMIZDAGI O`RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7516515>



ELSEVIER



Foundation of Advanced Research & Education

Received: 08-01-2023

Accepted: 09-01-2023

Published: 22-01-2023

Kuvandikova Damegul Kazakbaevna

Muhammad al-Xorazmiy namidagi TATU nukus filiali assistent o`qituvchisi

Azbergenova Ayzada Kabilbay qizi

Muhammad al-Xorazmiy namidagi TATU nukus filiali 3-kurs talabasi



Abstract: Ushbu maqolada IT sohasining kelajakdagi taraqqiyoti va hozirgi kunda unga bo'lgan talab, Bugungi globallashuv jarayoni kechayotgan davrda, kundalik hayotimizni axborot-kommunikatsion texnologiyalari, kompyuterlar va Internetsiz tasavvur qilish mushkulligi, internet va axborot texnologiyalari hayotimizni ajralmas qismi bo'lib qolayotganligi haqida so'z boradi.

Keywords: IT, axborot texnologiyalari, dasturchilik, yangilik, o'zgarishlar, loyiha, maqsad, malaka.

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Agar e'tibor berayotgan bo'lsangiz so'nggi paytlarda yurtimizda dasturchilik sohasiga doir ko'plab ko'zga ko'ringan ajoyib yangiliklar, loyihalar va tanlovlar ishlab chiqilmoqda. Dasturchilik bu "kelajak" kasbi ekanligini deyarli barchamiz bilib oldik. Biz axir axborot texnologiyalari asrida yashab kelmoqdamiz. IT sohasida katta o'zgarishlar bo'lmoqda, asosiy maqsad esa yangi malakali mutaxassislarini yetishtirib chiqarishdir.

IT – axborot texnologiyalari vositalari yordamida axborotni taqdim etish, qabul qilish, saqlash, uzatish usullarini, ya'ni axborot jarayonlarni va axborot texnologiyalari vositalarining faoliyat ko'rsatish tamoyillarini, ularni boshqarish usullarini sistemali ravishda o'rganuvchi fandır. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng uning oldida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun, madaniy va ma'naviy yangilanish uchun keng yo'llar ochildi. Respublikaning barcha sohalarini texnik vositalar bilan qurollantirish, zamonaviy texnika va texnologiya bilan ta'minlash hamda xalqaro zamonaviy talablarga javob beruvchi telekommunikatsiyali va kompyuterli aloqa tizimini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi.

Bugungi globallashuv jarayoni kechayotgan davrda, kundalik hayotimizni axborot-kommunikatsion texnologiyalari, kompyuterlar va Internetsiz tasavvur qilish mushkuldir. Shuning uchun ham bugungi kunda raqamli texnologiyalar asta sekin kundalik hayotimizning barcha sohalariga kirib, ijtimoiy hayotning ajralmas bir qismiga aylanib bormoqda. Aynan, ana shu muhim jihatni hisobga olgan xolda mamlakatimizda 10 dan ortiq texnika va raqamli texnologiyalar yo'nalishidagi mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari faoliyatini yo'lga qo'yilganligi ham

raqamli texnologiyalarning nafaqat iqtisodiyot, siyosat kabi sohalarda balki, ta'lim tizimida ham katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir.

Barchamiz bilamizki, hozirgi kunda eng jadal rivojlangan va rivojlanayotgan sohalardan biri bu IT. Yon - atrofimiz elektron qurilmalar bilan o'ralgan bir zamonda, hayotimiz ham ITga chambarchas bo'g'liq bo'lib qoldi, bugungi kunimiz emas, hatto kelajagimiz ham IT sohasi bilan quriladi. Ko'plab Mamlakatlar IT sohasining rivojlanishiga katta e'tibor qaratmoqda. Kundalik hayotda foydalanayotgan turli xil televizorlar, mashinalar, smartfonlar, smartwatchlar va boshqa turdagi har xil maishiy texnikalarimiz maxsus dasturlar orqali ishlaydi, dasturlar esa to'g'ridan to'g'ri dasturlash tillariga va maxsus programmalarga tayanadi. IT sohasining takomillashib borishi bizning yurtimizga ham kirib kelishiga sabab bo'ldi. Insoniyat o'zining rivojlanishi tarixi mobaynida modda, quvvat va axborotlarni o'zlashtirib kelgan. Bu rivojlanishning butun bir davrlari shu bosqichning ilg'or texnologiyasi nomi bilan atalgan. Masalan: «tosh asr» - mehnat quroli yasash uchun toshga ishlov berish texnologiyasini egallash bosqichi, «kitob chop etish asri» - axborotni tarqatishning yangi usulini o'zlashtirish bosqichi, «elektr asri» - quvvatning yangi turlarini o'zlashtirish bosqichi shular jumlasidandir. Bundan 20-30 yillar ilgari «atom asri» boshlandi deyilgan bo'lsa, bugungi kunda «axborot asri», «Axborot texnologiyalar asri» deb ataladi.

IT sohasi boshqa sohalarga uzviy bo'g'liq bo'lganligi uchun, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonida IT sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bugungi kunda informatika fanining rivoji va istiqbollari, bu fan oldida turgan dolzarb masalalar haqida talaba va o'quvchilarga o'z vaqtida ma'lumot yetkazish, bilim berish zamonaviy fan o'qituvchilari, ilmiy izlanuvchi olimlarning muhim vazifalaridir. Sababi fan shunchalik shiddat bilan rivojlanmoqdaki, agar bu bilimlar bugun talabalarga yetkazilmasa, ertaga eskirgan ma'lumotga aylanib qolishi hech gap emas. Shunday muhim vazifalarni amalga oshirishda ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan ilmiy-amaliy anjumanlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot ustida kerakli amallarni bajarish borasida tashkil qilingan javrayon axborot texnologiyasi deb ataladi. Axborot texnologiyasi asosiy texnik vositalari sifatida hisoblash- tashkiliy texnikadan tashqari aloqa vositalari – telefon, teletayp, telefaks va boshqalar qo'llaniladi. Axborot texnologiyasi insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lgan bo'lsa-da, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, xom ashyo, materiallar va moddiy iste'mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik qilmokda, ya'ni axborot

texnologiyalari mavjud yangi texnologiyalar orasida etakchi urinni yegallamokda. Axborot texnologiyalari industriyasi majmuini kompyuter, aloqa tizimi, ma'lumotlar ombori, bilimlar ombori va u bilan boglik faoliyat soxalari tashkil kiladi.

Bugungi kunda axborot texnologiyasini shartli ravishda saqlovchi, ratsionallashtiruvchi, yaratuvchi turlarga ajratish mumkin. Birinchi turdagi texnologiyalar mehnatni, moddiy resurslarni, vaqtni tejaydi. Ratsionallashtiruvchi axborot texnologiyalariga chiptalar buyurtma qilish, mexmonxona xisob-kitoblari tizimlari misol bo'ladi. Shunday ekan ITsohasi har birimiz uchun zarur hisoblanadi. Xulosa o`rnida shuni aytish kerakki Har bir inson , goh talaba bo'lsin , goh o'qituvchi ilm o'rganishdan to'xtamasligi lozim. Qancha o'z ustida shug'ullansa, shuncha rivojlanadi odam. Ayniqsa, IT sohasi o'rganuvchilari izlanishdan, o'rganishdan , yangiliklardan bebahra qolib ketmasliklari lozim. Dasturchi o'rgangan bilimlarini ko'proq amaliyotda qo'llagandagina katta va yaxshi natijalarga erishadi. Buyuk insonlarning ham yutuqlari orqasida ko'p izlanish, uzoq vaqt o'rganish va o'rganishdan to'xtamaslik, katta mehnat yotibdi. Shunday ekan nafaqat IT dasturchilari , balki oldiga ulkan maqsadlarni qo'ygan inson izlanishdan o'rganishdan va o'rgatishdan to'xtamasligi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. Oydina, A. (2022). AXBOROT TEXNOLOGIYA TERMINOLOGIYASI VA UNING AHAMIYATI. *ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA*, 1(2), 96-99.
2. Oydina, Abdulboqiyeva. "AXBOROT TEXNOLOGIYA TERMINOLOGIYASI VA UNING AHAMIYATI." *ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA* 1.2 (2022): 96-99.
3. Rahmatova F. M. et al. Umumta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish //Science and education. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 678-686.
4. Alimov R. Axborot tizimlari //Архив научных исследований. – 2020. – №. 30.